

## **AFG'ON URUSHIDA SOVET QUOLLI CHEKLANGAN KONTINGENTI VA AFG'ON MUXOLIFAT KUHLARI O'RTASIDA YUZ BERGAN HARBIY HARAKATLARDA O'ZBEKISTONLIK JANGCHILARNING ISHTIROKI**

*Shoyimov Sanjarbek Saidmurod o'g'li*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi*

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti "Tarix" kafedrası mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Afg'onistondagi harbiy harakatlarda sovet armiyasi tarkibida ishtirok etgan o'zbekistonlik jangchilarning afg'on muxolifat kuchlari o'rtasida yuz bergan asosiy jang harakatlari hamda ushbu urushda o'zbekistonliklar ishtirokining roli haqida zarur ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Afg'oniston, Afg'onistonda harbiy harakatlar, sovet armiyasi, afg'on muxolifat kuchlari, Afg'onistondagi siyosiy vaziyat

O'tgan asrning 80-yillarida yuz bergan Afg'onistondagi urush nafaqat afg'on xalqi uchun balki, sovet xalqlari, ayniqsa o'zbekistonliklar uchun ayanchli yo'qotish bo'ldi. Urushning yuzaga kelishi 70-yillarda Afg'onistonda siyosiy vaziyatning keskinlashuvi bilan boshlanib, hokimiyatga sovetparasat AXDP partiyasining kelishi va uni SSSR hukumati tomonidan qo'llab-quvvatlanishi bilan bog'liq jarayonlar yuz berdi. O'sha davrdagi afg'on hukumati rahbari H.Aminning AQSh davlati bilan yaqinlashuvi va sovetlarga nisbatan xoinligi 1979-yilning 12-dekabr kuni KPSS Markaziy byurosida "Afg'onistondagi vaziyat to'g'risida" deb nomlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Yig'ilishi natijasiga ko'ra, SSSR afg'on hududiga afg'on hukumatining iltimosi hamda Sovet-Afg'on ittifoqchilik shartnomasiga binoan o'z baynalmilal yordamini ko'rsatish maqsadida Sovet Qurolli Kuchlarini kiritdi[1]. Tarixchilar qayd etishicha, 1979 yilning martidan dekabrigacha Afg'oniston hukumati SSSRdan 19 marta harbiy yordam so'ragan. 1979-yilning 27-dekabr kuni Hafizullo Aminning qarorgohi -Tojbek saroyi

sovet harbiy kuchlari tomonidan qamal qilindi va afg'on hukumati rahbari o'ldirildi. Biroz fursatdan so'ng, Afg'oniston Demokratik Respublikasi deb e'lon qilindi va Sovet davlatida ta'lim olgan, SSSRning Pragadagi sobiq elchisi, AXDP rahbari B.Karmal rahbar etib tayinlandi. SSSR tomonidan Afg'onistonga kiritilgan harbiy qo'shinlari, 40-armiya "Afg'onistondagi cheklangan sovet qo'shinlari kontingenti" deb nomlanadi. Armiya qo'mondoni etib Turkiston harbiy okrugi ko'shinlari qo'mondoni birinchi o'rinbosari general-leytenant Y. V. Tuxarinov tayinlanadi. Afg'onistonga kiritilgan sovet qo'shinlarining soni yil sayin ortib boradi va 1985 yilga kelib, 108,8 ming (harbiy xizmatchilar 106 ming) kishiga yetadi, harbiy qismlardagi kontingent 73,6 ming kishini tashkil qilgan. Sovet qo'shinlari afg'on armiyalarining qismlari va bo'linmalariga Sarandoy (Afg'oniston IIV) xavfsizlik xizmati bilan birgalikda barcha magistral avtomobil yo'llarining himoyasi topshirilgan edi. Shuningdek, Sovet Ittifoqi fuqarolari, maslahatchilari va mutaxassislariga Sovet-Afg'on iqtisodiy hamkorligi obyektlari (Jarkuduk va Shibirg'ondagi gaz sanoati, Surubi, Naglu, Puli Xumri va Kobuldagi elektrostansiyalar, Mozori Sharifdagi azot o'g'itlari zavodi, Sarang dovonidagi tunnel) ni va shuningdek, Qobuldagi bir qancha o'quv muassasalarini qo'riqlash topshirilgan. 1979-1989-yillarda Afg'onistonda sodir bo'lgan bo'lgan qurolli harakatlarda 64,5 mingdan ortiq o'zbekistonlik yigit-qizlar (shulardan 1545 nafari halok bo'ldi. 3067 nafari uylariga nogiron bo'lib qaytdi) ishtirok etadi. Shuningdek, 1981-1983-yillarda Afg'onistonning Asadobod hududida Kapitan, shtab boshlig'i o'rinbosari lavozimida xizmat qilgan o'zbek yigiti Pardayev Rofi Pardayevichning urushda ko'rsatgan xizmatlari beqiyosdir. Rofi Pardayev boshchiligida Jalolobod va Kunar viloyatlarida mening o'tkazilgan operatsiyalarda dushman hududida signal datchiklarini o'rnatish hamda dushman koordinatalarini yozib olish vazifasini a'lo darajada uddalaganligi tahsinga sazovor. Datchiklarni o'rnatish operatsiyasiga batalyon komandiri Baxitjon Ertaev qo'mondonlik qilgan. Shuningdek, R.Pardayevning yozishicha, "Batalyon komandiri kapitan Ertaev boshchiligidagi 5-rotaning Barkanday hududiga kirishi eng esda qolarli operatsiya bo'ldi. Men shtab boshlig'i vazifasini bajarib, xodimlar bilan oldinda yurdim. Kechasi ular

balandliklarni zabt etishdi va ertalab vizual razvedka qilishdi. Biz dushmanni topdik, lekin biz yetib kelganimizda, ular (dushmanlar) narsalarini tashlab, qochib ketishdi. Biz ularni ta'qib qilishimiz kerak edi. Ular tog'larga chiqishdi, lekin brigada allaqachon qo'shilgan edi. O'shanda katta operatsiya bo'lgan edi. Ushbu operatsiyada biz 9 kishini yo'qotdik. Hatto 3-batalyon qo'l jangiga ham kirishdi. 3-batalyon komandiri zukko va qo'rqmas ofitser kapitan O'razov edi. Kechasi ular Daripech mintaqasidagi dushmanlar uyasini egallab olishdi. Bu daraning eng tor joyi. Hatto Iskandar Zulqarnayn qo'shinlari ham u yerdan o'ta olmadilar. Biz dushmanlarning uyasini vayron qildik, 3-batalon yo'q qilindi. Xususan, o'zbekistonlik jangchilar urushda o'zlarining noyob qobiliyatlari samarali ishtirok etishdi. Jumladan, samarqandlik Tal'at Pardayevich Muradov 1984-1985-yillarda zobit-tarjimon sifatida Afg'onistonga yuborilgan. Bu harbiy harakatlarda ko'rsatgan jasorati uchun 1985-yilda "Qizil Yulduz" ordeni bilan mukofotlangan.

Urushdan hamma askar ham sog'-omon qaytib kelmagan. Xorazmlik Sheranov Gulmirza Eshimmetovichning taqdirida Afg'onistonda xizmatni o'tash va u yerdan oyoqsiz qaytish bitilgan ekan. Gulmirza Sheranov 1985-yili Bagramdagi "Sapyorniy batalyon" da xizmatni boshladi. 1986-yilning may oyida Kobul shahri va Bagram shahri o'rtasidagi postning yer osti yo'liga kirish chog'ida mina portlashi natijasida ikki oyog'idan ayrilgan. Afg'onistonda xizmat qilgan harbiylar orasidan davlat chegarasini qo'riqlashda jonbozlik ko'rsatgan ofitserlardan Sultonov Rustam Sultonovichning xizmatlari katta bo'ldi. Shuningdek, 1985-1987-yillarda Afg'onistonda o'tkazilgan harbiy operatsiyalarda uning rahbarligidagi otryadning Afg'onistonda urush olib borayotgan oziq-ovqat, qurol-yarog' yetkazib berishdagi ahamiyati beqiyos bo'ldi. Rustam Sultonovich rahbar bo'lib xizmat olib brogan 107-chegara qo'shinlari otryadi harbiy bazasi yuboriladigan oziq-ovqat, harbiy qurol-yarog'lar bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaganligini aytib o'tdi. Afg'onistonda xizmat vaqtida 2 marotaba xatarli hujumlardan omon qolganligini ta'kidlaydi. "Man uchmoqchi bo'lgan vertolyot dushmanlar hujumidan keyin qulab tushdi oldinroq komandirim men bilan birga Rustam ketasan degani meni o'limdan asrab qolgandi o'shanda" deb eslaydi sobiq urush faxriysi.

Urushda R.Sultonov “Afg'on urushi veterani” “Афганская Слава” ordenlari va boshqa ko'plab davlat mukofotlari bilan mukofotlandi. 1985-1986-yillarda G'aznada xizmat vazifasini bajargan katta serjant Politin Oleg Valentinovich urush haqida shunday xotirlaydi: “ Biz (SSSR) afg'on xalqiga yordam berayotganini bilardik. Bizning internatsionalist askarlarimiz demokratik inqilobga har tomonlama yordam berishmoqda. Maktablar, shifoxonalar, tibbiyot muassasalari qurilishida gumanitar yordam ko'rsatilmoqda. Bizning vazifamiz, bizning fikrimizcha, buni amalga oshirayotgan mutaxassislariga hamrohlik qilish edi. Biz mujohidlar bilan, demokratiyaga, sivilizatsiyalashgan jamiyat barpo etishga qarshi dushmanlar bilan kurashdik. Giyohvand to'dalarga qarshi (kurashgan). Sovet qo'shinlarining vazifalarini (ular bilishardi). O'sha paytda biz reydlar o'tkazilayotganini, (qo'shinlar) karvonlarda ketayotganini, qurol-yarog' musodara qilinayotganini, giyohvand moddalar musodara qilinayotganini allaqachon bilgan edik - bularning barchasi Sovet Ittifoqiga, keyinchalik butun Yevropaga, butun dunyoga ketayotgan edi”. Sobiq harbiy Oleg Valentinovich 1986-yillarda Qandahor, Alixayl, Panjshir operatsiyalarida qatnashgan. Harbiy harakat vaqtida Qandahorda yarador bo'lgan. 1985-1986-yillarda Panjsher vodiysi Ruxa qishlog'ida xizmatni o'tagan o'zbek serjanti Samatov Abdurazzoq Abdujalilovich urushdagi o'z ishtiroki haqida “ Ilk jarohatim mina portlashi natijasida bo'lib, yengil o'tgan edi. Ikkinchi jarohatim 5 kishidan iborat piyoda jangovor mashina qurshab olinganda himoya qilib, ikkinchi jarohatimni oldim. O'shanda snayper bo'lgan do'stim Sh.Mamadaliyevni olib chiqqandim, u boshidan o'q yegandi, men esa ikkita portlovchi o'qdan yaralandim. Bu voqea 1986-yil 10-oktabrda sodir bo'ldi. Buning uchun meni “Qizil Yulduz” ordeni bilan mukofotlashdi” deb xotirlaydi[]. U sovetlar bilan yonma-yon yurib, muxolifat kuchlariga qarshi kurashgan afg'onlar haqida “Sarando'yda Sovet qo'shinlari bilan birgalikda ko'plab operatsiyalarda qatnashdi. Qachonki ular biz bilan qo'zg'olonchilarga qarshi jang qilsalar va alohida (harakat qilsalar), xiyonat qilishlari mumkin edi” deb izohlaydi. 1985-1987-yillarda Afg'onistonda harbiy xizmatni o'tagan. Turkmanistonda 3 oyli harbiy tayyorgalikdan o'tib saninstruktur lavozimida o'qitishib, 102 polk Toshqo'rg'on polkiga

borib, bir necha kunda so'ng Xayraton polkiga yuborishgan. Pulemyotchi (razvedkada) bo'lib xizmat qilgan. Xayratonda 3 ta katta gazaprovod(GSM)ni qo'riqlashgan. Urushda "Jangovor xizmatlari uchun" medali "Sovet Qurolli Kuchlarining 70 yilligi" medallari va boshqa medallar bilan mukofotlangan. 1979-1989-yillarda Afg'onistonda sodir bo'lgan bo'lgan qurolli harakatlarda 64,5 mingdan ortiq o'zbekistonlik yigit-qizlar (shulardan 1545 nafari halok bo'ldi. 3067 nafari uylariga nogiron bo'lib qaytdi) ishtirok etadi.

Afg'oniston urushida qatnashgan o'zbekistonlik askarlar o'z xizmatlari uchun turli davlat mukofotlari, medallar va ordenlar bilan taqdirlangan. Bu mukofotlar, asosan, Sovet Ittifoqi davrida berilgan va askarlarning jasoratli harakatlari uchun ularni rag'batlantirish maqsadida berilgan. Quyida asosiy mukofotlarning ayrimlari keltirilgan:

1. Qizil Bayroq ordeni – Sovet Ittifoqining yuqori darajadagi ordenlaridan biri bo'lib, jangdagi jasorati va maxsus xizmatlari uchun berilgan. Afg'oniston urushida qatnashgan ko'plab o'zbekistonlik askarlar ham shu orden bilan taqdirlangan.

2. Oktabr Inqilobi ordeni – Sovet davridagi ikkinchi eng yuqori orden bo'lib, urush davomida qahramonlik ko'rsatganlar uchun berilgan. O'zining xizmatdagi o'rnini namoyon etganlar ushbu orden bilan taqdirlangan.

3. Qizil Yulduz ordeni – Jangdagi maxsus xizmati, jasorati yoki fidoiyligi uchun berilgan. Afg'oniston urushida o'zbekistonlik askarlardan ko'plari ushbu orden bilan taqdirlangan.

4. Jasorat uchun medali – Jang maydonidagi faolligi va fidoiylig ko'rsatgan askarlar uchun berilgan. Afg'oniston urushida ishtirok etgan o'zbekistonlik askarlarning ko'pchiligi ushbu medal bilan taqdirlangan.

5. So'nggi mo'ljalni oldiga qo'yish uchun medal – Jangdagi so'nggi vazifani muvaffaqiyatli bajargan askarlar uchun berilgan. Bu medal ham Afg'oniston urushi qatnashchilari orasida mashhur bo'lgan.

6. "Afg'onistonda xizmat uchun" medali – Afg'onistondagi xizmatda bo'lgan barcha askarlarga berilgan maxsus medal. Bu medal Afg'onistonda jang qilgan har bir askar uchun e'tirof bo'lgan.

7. Jangovor xizmatlari uchun medali.

Ushbu mukofotlar Afgʻoniston urushida qatnashgan va harbiy burchini ado etgan oʻzbekistonlik harbiylarning jangdagi fidoyiliklari va jasoratlarini eʼtirof etish maqsadida berilgan. Toʻliq maʼlumotni maxsus arxivlar yoki Sovet Ittifoqi harbiy mukofotlari boʻyicha nashrlarda topish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Их выбрала Родина / Авт.-сост. Олейников В. В. – Рыбинск: Изд-во О53 АО «РДП», 2020. С. 30-31.
2. Топорков В.М. Советско-афганские отношения в 1975-1991 гг.: исторический опыт разработки и реализации военно-политической стратегии СССР. Чебоксары: 2014. С. 316.
3. Richard Cohen (1988-04-24). "[Afghanistan was Soviets' Vietnam](#)". [Boca Raton News](#)<https://news.google.com/newspapers?nid=1291&dat=19880424&id=DIBUAAAIBAJ&sjid=nI0DAAAIBAJ&pg=4618,8684307&hl=en>
4. № П177 /220. ЦХСД 89, Перечень 14, Док 34, Стр 1-5, 22 I 3.
5. Риа Новости // Участие Советского Союза в войне в Афганистане в 1979-1989 годах. и <https://ria.ru/20180515/1520504670.html>